



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MUVOFIQ EBITDA INDIKATORINI HISOBGA OLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Amir Xudaykulov

Termiz davlat universiteti
“Moliya” kafedrasida dosenti v.b., PhD.,
TDIU mustaqil izlanuvchisi
Termiz, O‘zbekiston,

E-mail: amir7x@mail.ru; xudoyqulova@tersu.uz
ORCID: 0000-0001-8915-5962

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha o‘z hisobotlarini e‘lon qiluvchi korxonalar uchun rasmiy e‘lon qilinishi talab qilinadigan samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlaridan – foizlar, soliqlar va amortizatsiya summalarini chegirgunga qadar olingan foyda (EBITDA — Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization) indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari milliy qonunchiligimiz va milliy standartlarimiz bilan solishtirilgan holda o‘rganib chiqilgan.

Tayanch iboralar. Foizlar, soliqlar, amortizatsiya va amortizatsiyadan oldingi foyda, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), moliyaviy hisobotning milliy standartlari (MHMS), samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari, daromadlar va xarajatlar tarkibi, davlat ishtirokidagi korxonalar, qaytarib qoplab berilgan foyda solig‘i, aktivlarni qayta baholash, amortizatsiya, aktivlarning qadrsizlanishi.

SPECIFICS OF ACCOUNTING FOR EBITDA IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS

Amir Khudaykulov

Termez State University
Acting Associate Professor of the Department of “Finance”, PhD.,
Independent applicant at TSUE
Termiz, Uzbekistan,

Email: amir7x@mail.ru; xudoyqulova@tersu.uz
ORCID: 0000-0001-8915-5962

Abstract. This article examines the specific features of accounting for the EBITDA indicator (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization), one of the additional key performance indicators, in comparison with our national legislation and national accounting standards. Enterprises publishing their financial statements in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS) are required to officially disclose this indicator.

Keywords. Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization (EBITDA), International Financial Reporting Standards (IFRS), National Financial Reporting Standards (NFRS), additional key performance indicators, structure of revenues and expenses, enterprises with state participation, reimbursed income tax, revaluation of assets, depreciation, asset impairment.

ОСОБЕННОСТИ УЧЕТА ПОКАЗАТЕЛЯ ЕБИТДА В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Амир Худайкулов

Термезский государственный университет
и.о. доцента кафедры "Финансы," PhD.,
Самостоятельный соискатель ТГЭУ





Termez, Uzbekistan,

Электронная почта: amir7x@mail.ru; xudoyqulova@tersu.uz

ORCID: 0000-0001-8915-5962

Аннотация. В данной статье рассматриваются специфические особенности учета показателя EBITDA (Прибыль до вычета процентов, налогов и амортизации), одного из дополнительных ключевых показателей эффективности в сравнении с нашим национальным законодательством и национальными стандартами, который предприятия, публикующие свои отчеты в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности (МСФО), обязаны официально публиковать.

Ключевые слова. Прибыль до вычета процентов, налогов, износа и амортизации (EBITDA), международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), национальные стандарты финансовой отчетности (НСФО), дополнительные ключевые показатели эффективности, состав доходов и расходов, предприятия с государственным долевым участием, возмещенный налог на прибыль, переоценка активов, амортизация, обесценение активов.

Kirish.

Bugungi kunda O‘zbekistonning ko‘pchilik korxonalar, tashkilot va muassasalarida samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari va samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari sarhisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga va xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt hisob siyosatiga muvofiq ishlab chiqish hamda uni amalda tadbiriq etish masalalari dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi.

2026-2030 yillarga mo‘ljallangan «O‘zbekiston-2030» strategiyasining 1-ilovasidagi “Barqaror iqtisodiy o‘rtaqali aholi farovonligini ta‘minlash” nomli 2-bo‘limi, 250-bandiga muvofiq “Milliy standartlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish darajasini 2030-yilga qadar 80 foizga yetkazish” maqsadlari belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda mazkur maqola ma‘lum bir darajada dasturilamal bo‘la olishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar sharhi.

2020-yil 9-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 775-son Qarori qabul qilindi⁵³. Mazkur qarorning 29-bandi “m” bandiga muvofiq, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari, samaradorlikning yig‘indi ko‘rsatkichi va ularning yil yakunlari bo‘yicha bajarilishi auditorlik tashkiloti tomonidan, yil yakunlari bo‘yicha audit o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomaning alohida qo‘shimcha predmeti doirasida yoki alohida auditorlik tashkiloti tomonidan turdosh xizmatlari ko‘rsatish yo‘li bilan tekshirilishi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish sifatida to‘ldirilishi keltirib o‘tildi.

Shuningdek, 207-son ushbu qarorning 2a-“Samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari ro‘yxati” (rus tilida) ilovasi yangi tahrirda bayon etilishi belgilangan. Bundan tashqari 207-son qarorning 3a-“Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi” nomli (rus tilida) ilovasi, shu bilan birga “Samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi” nomli (rus tilida) ilovasi ham yangi tahrirda bayon qilinishi belgilangan⁵⁴.

Bunda samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari ro‘xatidagi “Foizlar, soliqlar to‘lagunga qadar olingan foyda (EBIT — Earnings Before Interest, Taxes)”, “Foizlar, soliqlar va

⁵³ “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.12.2020 yildagi 775-son

⁵⁴ “Положение о критериях оценки эффективности деятельности акционерных обществ и других хозяйствующих субъектов с долей государства”. Приложение к постановлению Кабинета Министров от 28 июля 2015 года № 207





amortizatsiya summalarini ayirganga qadar olingan foyda (EBITDA — Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization)”, “Xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR — Cost Income Ratio)”, “Jalb qilingan kapital rentabelligi (ROCE — Return on Capital Employed)”, “Aksiyadorlik kapitali rentabelligi (ROE — Return On Equity)” hamda “Energiosamaradorlik (mahsulot tannarxi tarkibida energiya xarajatlari ulushi)” kabi 6 ta ko‘rsatkich tashkilotlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘z hisobotlarini e‘lon qilishga o‘tgandan so‘ng to‘ldirilishi alohida belgilab berilgan.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari Kengashi (IASB) 2027-yil 1-yanvardan kuchga kiradigan yangi 18-son “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va oshkor qilish” nomli MHXS (IFRS) ni ishlab chiqdi⁵⁵.

Mazkur standartni 1-son “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti o‘rniga buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o‘tkazib borish maqsadlarining natijalaridan biri sifatida e‘tirof etishimiz mumkin.

EBITDA indikatorini hisoblash amaliyoti bo‘yicha uning birlamchi hisob ma‘lumotlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish va ularning mazmuni to‘g‘risidagi axborotlarni yuqorida keltirilgan 1-son “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” nomli buxgalteriya hisobi xalqaro standarti o‘rnini 2027-yil 1-yanvardan bosuvchi 18-son Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va oshkor qilish” nomli moliyaviy hisobot xalqaro standartidan olishimiz mumkin bo‘ladi.

Metodologiya.

Mazkur maqolada induksiya va deduksiya metodlari, deskriptiv tahlil, qiyosiy tahlil, amaliy hisob kitob, qayta baholash, daromad va xarajatlarni tan olish va moliyaviy hisobot tahlili metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Biz mazkur maqolada xodimlar emas, balki xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar samaradorligining qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan “Foizlar, soliqlar va amortizatsiya summalarini chegirgunga qadar olingan foyda (EBITDA — Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization)” indikatorini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritimiz.

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini qo‘llash amaliyotidan bilamizki bizda foyda solig‘ini to‘lagunga qadar olingan foyda ko‘rsatkichini hisoblab chiqarish algoritmi “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom”⁵⁶ da batafsil keltirib o‘tilgan. Ammo biz bu yerda u algoritmdan boshqacha, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan algoritmdan foydalanamiz. Bizga bu yerda Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization - EBITDA, ya‘ni “Foizlar, soliqlar va amortizatsiya summalarini ayirganga qadar olingan foyda” ko‘rsatkichini aniqlashimiz uchun dastavval yalpi foyda (zarar), asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar), umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) hamda favqulotda foyda va zararlarni alohida hisoblab chiqishimiz talab etilmaydi.

Bizda bu yerda birlamchi hisob ma‘lumotlari sifatida korxonaning to‘langan foizli xarajatlari hamda olingan foizli daromadlari summasi, korxonaning favqulotda foyda va zararlari summasi, foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlari summasi, qaytarib qoplab berilgan foyda solig‘i summasi, sof foyda hamda aktivlarni qayta baholash natijasi summolari kerak bo‘ladi.

Bizning maqsadimiz olingan sof foydaga foizli xarajatlarni qo‘shib, foizli daromadlarni ayirish, shuningdek, chiqqan summaga favqulotda zararni qo‘shib, favqulotda foydani ayirish,


⁵⁵ IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-18-presentation-and-disclosure-in-financial-statements/>; <https://finotchet.ru/articles/1999/>

⁵⁶ Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.





undan so‘ng esa chiqqan summaga foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlarni qo‘shish, qaytarib qoplab berilgan foyda solig‘i summasini ayirish va aktivlarni qayta baholash natijasi summasini ayirish bo‘lib hisoblanadi.



1-rasm. EBITDA indikatorining tavsifi⁵⁷

“EBITDA indikatorini tavsifi” nomli 1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, u korxonaga asosiy faoliyatidan olingan foyda samaradorligini ifodalaydi. Mazkur jihat va o‘ziga xoslik buxgalteriya hisobi milliy standartlari va Vazirlar mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son Nizomi talablarida uchramaydi.

Ammo milliy va xalqaro hisob tizimlari bo‘yicha bir xil ravishda samaradorlikning muhim va qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari (KPI) sarhisobida foydalaniladi.

Milliy hamda xalqaro hisob tamoyillariga muvofiq tarmoq korxonalarida o‘rtasida EBITDA indikatorini bo‘yicha qiyosiy tahlil o‘tkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, milliy standartlar bo‘yicha qarzdorliklarni tahlil qilishda EBITDA indikatorini to‘liq ma’lumotlarni taqdim eta olmaydi. Ammo milliy korxonalar xalqaro standartlarga o‘tgan bo‘lsa, EBITDA indikatorini bo‘yicha qarzdorliklarni tahlilini o‘tkazishda juda qo‘l keladi.

Haqqoniy qiymatni baholash tamoyillari esa bugungi kunda milliy va xalqaro standartlarda to‘liq amal qilmoqda. EBITDA indikatorini korxonaga sof foydasi ko‘rsatkichini ifodalay olmasada, korxonaga moliya-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha uning EBITDA indikatorini bo‘yicha rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rsata oladi (1-jadval).

1-jadval

EBITDA indikatorini milliy va xalqaro standartlar bo‘yicha hisobga olish xususiyatlari⁵⁸

T/r	MHXS bo‘yicha	BHMS bo‘yicha	Jihatlar		Tadqiqotchi yondashuvi
			Farqli	O‘xshash	
1.	Korxonaga asosiy faoliyatidan olingan foyda samaradorligini ifodalaydi.	Mazkur jihat va o‘ziga xoslik buxgalteriya hisobi milliy standartlari va Vazirlar mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-	Mavjud	Mavjud	Milliy va xalqaro hisob tizimlari bo‘yicha bir xil ravishda samaradorlikning muhim va qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari

⁵⁷ Tadqiqotchi tomonidan izlanishlarga muvofiq ishlab chiqildi.

⁵⁸ Tadqiqotchi tomonidan izlanishlar natijasida ishlab chiqildi.





		son Nizomi talablarida uchramaydi.			(KPI) sarhisobida foydalaniladi.
2.	Miilliy hisob tamoyillariga muvofiq tarmoq korxonalarini o'rtasida EBITDA indikatorini bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazish imkonini beradi.	Xalqaro hisob tamoyillariga muvofiq tarmoq korxonalarini o'rtasida EBITDA indikatorini bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazish imkonini beradi.	Mavjud emas	O'xshash	Bu bizga milliy va xalqaro standartlar uyg'unlashuvi darajasini 2030-yilgacha 80 foizga yetkazishimizda amaliy yordam beradi.
3.	Xalqaro standartlar bo'yicha qarzdorliklarni tahlil qilishda EBITDA indikatorini to'liq ma'lumotlarni taqdim eta oladi.	Milliy standartlar bo'yicha qarzdorliklarni tahlil qilishda EBITDA indikatorini to'liq ma'lumotlarni taqdim eta olmaydi.	Mavjud	O'xshash emas	Bizningcha milliy korxonalar xalqaro standartlarga o'tgan bo'lsa, EBITDA indikatorini bo'yicha qarzdorliklar tahlilini o'tkazishda juda qo'l keladi.
4.	EBITDA indikatorining haqqoniy qiymatni baholash tamoyillari bugungi kunda xalqaro standartlarda to'liq amal qilmoqda	EBITDA indikatorining haqqoniy qiymatni baholash tamoyillari bugungi kunda milliy standartlarda to'liq amal qilmoqda	Mavjud emas	O'xshash	EBITDA indikatorini korxonada sof foydasi ko'rsatkichini ifodalay olmasada, korxonada moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha uning EBITDA indikatorini bo'yicha rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsata oladi.
5.	Xalqaro standartlarga muvofiq EBITDA indikatorini hisoblash o'ziga xos xususiyatlarga ega.	O'zbekistonda BHMS ni qo'llash amaliyotidan bilamizki bizda foyda solig'ini to'lagunga qadar olingan foyda ko'rsatkichini hisoblab chiqarish algoritmi “Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom” da batafsil keltirib o'tilgan.	Mavjud	O'xshash emas	Bu bizning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha hisob ishlarini shaffof yo'lga qo'yishimizda bir qator vazifalarni yana ham bir karra tahliliy o'rganishimizni talab etadi.

Endi yuqorida keltirilgan izoh va tushuntirishlar asosida bitta namunaviy masalani keltirib o'tamiz.

Deylik, hisobot yilida korxonaning to'langan foizli xarajatlari — 210 mln. so'mni, olingan foizlari — 35 mln. so'mni, favqulodda foydasi — 45 mln. so'mni, favqulodda zararlari — 120 mln. so'mni, foyda solig'i bo'yicha xarajatlari — 320 mln. so'mni, qaytarib qoplab berilgan foyda solig'i summasi — 20 mln. so'mni, sof foydasi esa — 980 mln. so'mni, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi 450 mln. so'mni, aktivlarni qayta baholash natijasida ortgan summa 50,0 mln. so'mni tashkil etgan.

Bunda bizga topshiriq sifatida foizlar va soliqlar to'lagunga qadar olingan foyda (EBITDA) ko'rsatkichini topish berilgan bo'lsin.

Biz buning uchun yuqorida keltirilgan izoh va tushuntirishlar asosida quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshiramiz:

$$EBITDA = 980,0 + 320,0 - 20,0 - 45,0 + 120,0 + 210,0 - 35,0 + 450 - 50,0 = 1930,0 \text{ mln. so'm.}$$

Shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, EBITDA, ya'ni “Foizlar, soliqlar to'lagunga qadar olingan foyda va amortizatsiya xarajatlari chegirilgan keyingi foyda” ko'rsatkichi sarhisobi EBIT, ya'ni “Foizlar, soliqlar to'lagunga qadar olingan foyda” ko'rsatkichini aniqlash sarhisobi algoritimga ancha yaqin bo'lib hisoblanadi. Bunda faqatgina amortizatsiya (va/yoki eskirish)





xarajatlari summasini qo‘shishimiz va aktivlarni qayta baholash natijasida ortgan summani ayirib, aktivlarni qayta baholash natijasida kamaygan summani jami summaga qo‘shishimiz lozim bo‘ladi.

Bizning masalamizda bugungi kunda dunyoda inflyasiya surati yil sayin oshib borayotganligini hisobga olib aktivlarni qayta baholash bo‘yicha ortgan summa hosil bo‘lganligini qayd etdik.

Yuquridagi tadqiqotlar asosida quyidagi **xulosa va takliflarni** ishlab chiqdik:

Xulosalar:

1. 2024-yil 1-yanvardan boshlab yangi S1-son "Umumiy barqarorlikka oid moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish talablari" nomli MHXS (IFRS) kuchga kirdi⁵⁹. Mazkur standart o‘z oldiga faqatgina barqarorlik bilan bog‘liq xatarlar va investorlarning axborot ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari haqidagi axborotlarni oshkor qilish maqsadini ko‘zlagan.

2. EBITDA indikatorini aniqlashning o‘ziga xos xarakterli jihati shundaki, mazkur ko‘rsatkich o‘zining kreditorlar oldidagi qarz yukini o‘zini sof pul oqimi bilan qoplay olish qobiliyatini ko‘rsatib beradi.

Ammo shuni ham aytib o‘tishimiz lozimki, buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq kreditorlar oldidagi qarz yuki bu tartibga muvofiq hisoblab chiqilmaydi. Bunda BHMS ga muvofiq qarz yuki sifatida korxonalar, tashkilotning joriy hisobot davrida to‘lashi kerak bo‘lgan barcha kreditorlik qarzdorligi summasi asos qilib olinadi.

3. Mazkur EBITDA ko‘rsatkichi qiymatlarini tavsiya etiladigan yoki minimal me‘yorini belgilash bo‘yicha me‘yoriy qiymatlari bugungi kungacha hali ishlab chiqilmagan. Bu esa bizga mazkur mavzuni o‘rganishning naqadar ahamiyatligini va amaliyotda hali o‘z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni amalga oshirish mas‘uliyatini yuklaydi.

Umuman olganda EBITDA indikatorini qiymati qancha yuqori bo‘lsa, bu korxonaning shuncha yaxshi ishlayotganligini ko‘rsatib beradi. Bunda mazkur indikatorni dinamik ravishda o‘zgarishini va shu tarmoqning boshqa korxonalar va tashkilotlari EBITDA indikatorini bilan solishtirishni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, yuqorida EBITDA indikatorini aniqlashda amortizatsiya (va/yoki eskirish) summasi sof foydaga qo‘shiladi, - degan izohlarni keltirib o‘tdik. BHMS tartib-qoidalariga yuzlanadigan bo‘lsak, amortizatsiya (va/yoki eskirish) summasi kimgadir to‘lab berilmaydi, balki u korxonaning mahsulot (tovar, ish va xizmat) lar tannarxini yoki davr xarajatlari summasini oshishiga va pirovardida esa xarajatlarni oshishi hisobiga korxonalar sof foydasi summasining kamayishiga olib keladi.

Bu esa bizning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha hisob ishlarini shaffof yo‘lga qo‘yishimizda bir qator vazifalarni yana ham bir karra tahliliy o‘rganishimizni talab etadi (1-jadval).

Takliflar:

1. Bizningcha EBITDA indikatorini, shuningdek, samaradorlikning muhim hamda boshqa qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlarini aniqlash amaliyotini S1-son "Umumiy barqarorlikka oid moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish talablari" nomli moliyaviy hisobot xalqaro standartida keltirish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (KPI) korxonalar moliyaviy xo‘jalik faoliyati qay darajada barqarorligini va kelezakdagi istiqbol

⁵⁹ МСФО (IFRS) S1 «Общие требования к раскрытию информации об устойчивом развитии». с 1 января 2024 г.

<https://finotchet.ru/library/280/282/424/> ;

<https://www.ifrs.org/search-results/?redirectUrl=%2Fcontent%2Fdam%2Fifrs%2Fpublications%2Fpdf-standards%2Fenglish%2F2026%2Fissued%2Fpart-b%2Fifrs-18-presentation-and-disclosure-in-financial-statements.pdf&query=IFRS+S1>





yo‘nalishlarini belgilab bera olish va qolaversa ularning faoliyat samaradorligini ko‘rsatib bera olish xususiyatlarga ega bo‘lib hisoblanadi.

2. Mazkur EBITDA, ya‘ni “Foizlar, soliqlar to‘lagunga qadar olingan foydani va amortizatsiya xarajatlari chegirilgan keyingi foyda” ko‘rsatkichi agarda korxonaning olgan sof foyda ko‘rsatkichi aslida zararga teng bo‘lsa, ya‘ni oddiyroq talqinda aytadigan bo‘lsak, korxonaning jami daromadlaridan jami xarajatlari ko‘p bo‘lsa, “EBITDA” ko‘rsatkichi foydani emas, balki zararni aks ettiradigan ko‘rsatkich sifatida e‘tirof etilishi kerak bo‘ladi.

Shuning uchun ham “EBITDA”, яъни “Foizlar, soliqlar to‘lagunga qadar olingan foydani va amortizatsiya xarajatlari chegirilgan keyingi foyda” ko‘rsatkichi nomini “Foizlar, soliqlar to‘lagunga qadar olingan foydani va amortizatsiya xarajatlari chegirilgan keyingi foyda (zarar)” ko‘rsatkichi, - deb qayta nomlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Shuningdek, “aktivlarni qayta baholash natijasi summasini ayirish” jumlasini “aktivlarni qayta baholash natijasida ortgan summani ayiramiz va aktivlarni qayta baholash natijasida kamaygan summani qo‘shamiz” jumalari bilan almashtirish lozim bo‘ladi.

Buning mazmuni shundaki, odatda korxonada aktivlarni qayta baholash natijasida ortgan summa daromad yoki foyda sifatida qaralsa, aktivlarni qayta baholash natijasida kamaygan summa xarajat yoki zarar sifatida e‘tirof etiladi.

Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq aktivlarning qadrsizlanishini oldini olish maqsadida rezervlar tashkil etiladi va mazkur rezervlar orqali qadrsizlangan summalar yopiladi, - deb keltiriladi. Mazkur o‘zgartirishlarni kiritish samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari hisobini to‘laqonli ravishda MHXS ga muvofiq yuritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son;

2. Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2025 yildagi PQ-282-son;

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent sh., 2006 yil 16 oktyabr, 215-son. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.11.2025 y., 09/25/709/1027-son;

4. “Положение о критериях оценки эффективности деятельности акционерных обществ и других хозяйствующих субъектов с долей государства”. Приложение к постановлению Кабинета Министров от 28 июля 2015 года № 207;

5. “Davlat ishtirokidagi korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.12.2018 yildagi 1013-son;

6. “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.12.2020 yildagi 775-son;

7. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

8. IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-18-presentation-and-disclosure-in-financial-statements/> ; <https://finotchet.ru/articles/1999/> ;

9. МСФО (IFRS) S1 «Общие требования к раскрытию информации об устойчивом развитии». с 1 января 2024 г.





<https://finotchet.ru/library/280/282/424/> ; <https://www.ifrs.org/search-results/?redirectUrl=%2Fcontent%2Fdam%2Fifrs%2Fpublications%2Fpdf-standards%2Fenglish%2F2026%2Fissued%2Fpart-b%2Fifrs-18-presentation-and-disclosure-in-financial-statements.pdf&query=IFRS+S1>

